

GUMANITAR TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Abduxalilova Shirmonoy Umidjon qizi

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti

(Filologiya va tillarni o'qitish rus tili) yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola raqamli ta'lim va uning qanchalik muhimligi, raqamli ta'limning elektron tushunchalari bilan belgilanishi, mobil texnologiyalardan keng foydalanishda muammolarning kelib chiqishi, gumanitar ta'lim axborot texnologiyalari haqida

***Kalit so'zlar:** Gumanitar fanlar, axborot texnologiyalari, raqamli ta'lim, dastur, o'qitish uslubi, rivojlanish.*

Xo'sh raqamli ta'lim nima? Raqamli ta'lim - bu o'qitish va o'ganish jarayonida raqamli vositalar va texnologiyalarning innovatsion qo'llanilishi bo'lib, ko'pincha ilg'or o'quv texnologiyalari yoki elektron ta'lim deb nomlanadi..

Ko'pchilik olimlar duch keladigan eng katta savol bu yangi texnologiyalar odamlarga qanday ta'sir qilishidir. Shunga qaramay, raqamli texnologiyalar ta'limdagi barcha muammolarni avtomatik ravishda hal qiladi va o'z-o'zidan ta'lim muhitining yaxshilanishiga olib keladi, deb ishonish xato bo'ladi, biroq, ulardan foydalanish ko'pincha o'qitish uslubining o'zgarishiga olib keladi.

Bugungi kunda, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, ta'lim muassasalari texnik va ijtimoiy rivojlanish darajasiga mos kelish kabi talablariga duch kelmoqdalar. Shubhasiz, raqamlashtirishni oddiy amalga oshirish haqiqiy o'zgarishlarga olib kelmaydi.. Shu sababli, har xil raqamli savodxonlikni ma'lum bir mavzu doirasiga siqib qo'yish emas, balki uni o'qitish va o'qitishning qisqa muddatli, shaxsiy

maqsadlariga emas, balki ta'lim sohasidagi global maqsadlarga ta'sir qiluvchi meta-fenomen sifatida ko'rib chiqish mantiqan to'g'ri keladi [1].

Ko'pincha raqamli ta'lim quyidagi elektron tushunchalar bilan belgilanadi: elektron ta'lim (e-learning), onlayn-ta'lim (online-learning), virtual o'rganish (virtual learning), masofadan turib o'qitish (distance learning), aqlli o'qitish texnikasi (the Smart Teaching Technique)va boshqalar[2]. Shu bilan birga, raqamli ta'limni ushbu ta'lim faoliyatining shakllari bilan solishtirish tendentsiyasi mavjud. Mana ba'zi misollar. Xususan, elektron ta'lim ta'lim olami bilan, raqamli biznes esa biznes olamiga tegishli bo'lishi taklif etiladi.Raqamli ta'lim (digital) - bu raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi turli xil strategiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan o'quv va o'quv amaliyotini rivojlantirish bosqichidir[3].

Elektron ta'lim atamasidagi "e" (e-learning) harfi ya'ni tushunchasi mavjud bo'lib, u shunchaki elektron o'rganish degani emas. Raqamli ta'lim bloglarni yuritish, sinfdagi ijtimoiy axborot vositalaridan foydalanish, standart o'quv dasturlaridan farqli maxsus, o'quvchilarni g'oyalarni sinab ko'rish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'rgatishdan iborat.

Raqamli texnologiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan multitasking (ko'p bosqichli vazifa) o'quvchilarning o'qish qobiliyati va kognitiv qobiliyatlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Psixologlarning tadqiqotlari raqamli texnologiyalardan foydalanishning ma'lum sharoitlarida samaradorlikning pasayishini ko'rsatmoqda. O'qituvchining raqamli texnologiyalardan foydalanishi talabalarning yaxshiroq o'rganishini anglatmaydi. O'qituvchi talabalarga multitasking keltirib chiqaradigan oqibatlarini yengishda yordam berishi mumkin, xususan:

1) faoliyatning faqat bitta turiga e'tibor berishni o'rgatish; vaqti-vaqti bilan talabalarni noutbuklarni, smartfonlarni yopib va sinfdagi munozaralarda qatnashishga taklif qilish;

2) ma'lumotlar miqdorini cheklash. Bu axborot manbalarini tanlashning maslahat xususiyatini anglatadi;

3) ta'minlash bo'yicha raqamli texnologiyalarni joriy etish va o'zlashtirish vaqti-vaqti bilan talabalarni fikrlashga o'rgatish.

Darhaqiqat, raqamli ta'lim kontseptsiyasining mohiyati shunchaki talabalarga texnologiyadan foydalanish yoki an'anaviy usullarni zamonaviysiga almashtirish imkoniyatini berishdan iborat bo'lmasdan, balki ta'limni texnologik jihatdan intensiv usulga yo'naltirish va texnologiyalarni o'quv jarayoniga puxta o'ylangan tarzda kiritish, orqali natijalarni yaxshilashdan iborat.

Internet tarmoqlarida shakllanyotgan professional jamiyatlar, kasbiy o'sishning yangi shakllari, masalan, vebinar, virtual master-klasslar o'qituvchilar uchun nihoyatda foydali bo'lishi mumkin.

Bugungi maktab o'quvchilari va oliygoh talabalari oldida kelajakda yashashlari va ishlashlari kerak, degan vazifa turibdi. Bu o'z navbatida ularning tayyorgarlik darajalari bugun emas, balki ertangi kun mehnat bozorining talablariga javob berishi kerak deganidir. Ushbu sohada ko'plab o'qituvchilar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Professional jamoalarning sahifalarida, mualliflik bloglari va veb-saytlarida raqamli o'rganish bo'yicha ushbu qo'llanma va kitoblar yozilyapti. Ushbu o'qituvchilar raqamli vositalarni o'zlashtirish bo'yicha o'zlarining noyob tajribalari katta hissa qo'shishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Белолипская Г.С., Максимова Н.В. *Использование проектных технологий в обучении студентов направления подготовки бакалавров «Журналистика» // Медиапространство многополярного мира: сборник научных статей. – М.: Российский университет дружбы народов, 2017. – С. 51-59.*

2. Боуэн У. Г. *Высшее образование в цифровую эпоху. – М.: Высшая школа экономики, 2018. – 222 с.*

3. Игнатова Н.Ю. *Образование в цифровую эпоху. – Нижний Тагил: НТИ УрФУ, 2017. – 128 с.*